

YANGI KREATIV PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

M.I.Sobirova

Mustaqil tadqiqotchi

S.K.Yusupova

Mustaqil tadqiqotchi

sobirovamunisa14@gmail.com

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Qarshi filiali

Annotatsiya. “Kreativ pedagogika” moduli (fani)ni o‘qitish pedagoglarda ularga xos kreativ sifat va ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Kreativlik o‘quvchi faoliyatida mustahkamlanib, samarali natijalarga erishish, yangiliklar yaratish, o‘z faoliyatining ijodiy yo‘nalishlarini aniqlashga imkoniyat beradi.

Kalit so’zlar: Pedagogik, kreativ, empirik, intellektual.

Kirish: Pedagogik texnologiyaning umumpedagogik, xususiy va kichik darajalari farq qiladi. Bundan tashqari, sezgi a‘zolari orqali bilim olishni ifodalaydigan empirik, moddiy va ma‘naviy olam haqidagi bilimlarni kengaytiruvchi kognitiv, ijodiy faoliyk va o‘quvizlanish mehnatiga asoslangan evristik, taddiqot va yangilik yaratish faoliyati bilan bog‘liq kreativ, axborot va ma‘lumotlarni qayta ishlash va o‘zgartirish evaziga ta‘lim-tarbiya beruvchi inversion, o‘zlashtirilgan bilimlarni omixtalab tugal tafakkurga olib keluvchi integrativ, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olib o‘qitishga tayanuvchi adaptiv, ta‘lim oluvchi va tarbiyalanuvchi shaxsi bilan o‘qituvchi (tarbiyachi) munosabatidagi tenglik va adolatlilikka bo‘ysunuvchi inklyuziv kabi pedagogik texnologiyalarning yo‘nalishlari shakllangan.

Pedagogik texnologiyalar quyidagi belgilari bo‘yicha tasniflanadi:



O‘qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir. Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushunchasi yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi, J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qibiliyatlarni ko‘rsatadi:


- fikrning ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yodlay olishi;

- o‘ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastik (fantaziya.) M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial — ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individlarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi. Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon — natija tavsifidan, kreativlikni belgilashda esa subyekt — shartlilik tavsifidan foydalanadi. Bunday birlik sifatida muallif intellektual faollikni ko‘rsatadi hamda uning uchta bosqichini ajratadi;
- rag‘batlantirishning samarali yoki sustkashlik bosqichi. Shaxsning bu bosqichiga, unga tashqaridan berilgan vazifalarni tashabbussiz qabul qilish xarakterlidir;
- intellektual faollikning evristik bosqichi. Bu bosqichda o‘z faoliyati tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish davom etadi, yangilik ochish, oqilona hal qilishga imkoniyat beradigan ayrim vazifalar qiyoslanadi;
- intellektual faollikning kreativ bosqichi. Bu bosqichda qo‘lga kiritilgan empirik qonunlar kelgusi tadqiqotlar uchun maqsad bo‘lib qoladi. Rag‘batlantiruvchi, samarali va evristik bosqichga qoloq (ekstensiv) aqliy faoliyat, kreativ bosqichga intellektual faoliyat xosdir. M. Gnatko kreativlik mexanizmlarini quyidagi bo‘limlarga bo‘lib o‘rganishni taklif etadi:

 - potensial kreativlik;
 - faoliyatdagi kreativlik.

Tadqiqot usullari va metodlar

Potensial kreativlik N.M Gnatkoning fikricha, muayyan tashqi sharoitlarda faol kreativlikka aylanishga nazariy tayyor shaklda namoyon bo‘ladigan individuumning potensial joylashishini anglatuvchi kreativ www.ziyouz.com kutubxonasi faoliyatdir. Potensial kreativlik ijodning zaruriy subyektiv shartidir. Faoliyatdagi kreativlik - faoliyatning biror turida ijodiy faollik ko‘rsatuvchining bevosita tayyorgarligini ta‘minlaydigan faoliyatning u yoki bu turi tavsifli potensial kreativ individuumning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi.



Potensial kreativlikni muntazam faoliyatdagi kreativlikka taqlid qilish asosida o‘zgartirib borish haqidagi qarashlariga qo‘shilgan holda uni to‘ldirib, kreativlik taqlid qilish, nusxa olish yo‘li bilan rivojlanadi hamda taqlid qilish asosidagi ijod, haqiqiy ijodga olib keladi, deb hisoblaydilar.O‘qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin:

- Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar tuzukkina ko‘chiriladi;
- ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi;
- uchinchi bosqichda g‘oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to‘la ishlab chiqiladi;
- to‘rtinchi bosqichda esa o‘qitish va tarbiyalashning o‘z betakror konsepsiysi va metodikasi yaratiladi.

O‘qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiyadir.

Natijalar va ularning muxokamasi

Talabaning kreativligini rivojlantirish o‘quv jarayonini ijodiy faoliyat modeli sifatida yaratish zarurligini nazarda tutadi. Oliy ta‘lim nazariyasi va amaliyotida talabaning kreativligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari kasbiy ta‘limni mazmunli, muammoli vaziyat kontekstida tadqiqot faoliyati sifatida tashkil etish, yechimlarni tanlash, usullarni aks ettirish, o‘zini ijodkor shaxs sifatida bilish, shaxsiy kasbiy tayyorgarlik dasturlarini yaratish, o‘quv jarayonini tashkil etishning moslashuvchan modellariga o‘tish zarurligini belgilaydi.

Kreativlik o‘quvchi faoliyatida mustahkamlanib, samarali natijalarga erishish, yangiliklar yaratish, o‘z faoliyatining ijodiy yo‘nalishlarini aniqlashga imkoniyat beradi. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyat va layoqatlarini rivojlantirishda bir qanch interfaol metod va texnologiyalar mavjud. Jumladan, “Diamond” “Idrok xarita”, “KHWL”, “Dizayn fikrlash” texnologiyalari va “Scamper”, “Esse”, “Assesment texnologiyasi”, “Refleksiya” va “Metaplan karta” metodlarini aytib o‘tish mumkin. O‘quv jarayonida ushbu metodlarni darsning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, loyihalashtirib qo‘llash quyidagi natijalarga olib keladi:

- o‘rganuvchilarning o‘qishga qiziqishlari va motivatsiyasi kuchayadi;
- o‘rganuvchilarning darsda zerikishi va charchashining oldi olinadi;
- o‘rganuvchida ijodiy ishlash ko‘nikmalari va faol fikr rivojlanadi;
- mavzu bo‘yicha yangi assotsiativ fikr va tasavvurni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

“SCAMPER” – kreativ metodi

- SUBSTITUTE (ALMASHTIRISH)- nima bilan almashtirish mumkin?
- COMBINE (BIRLASHTIRISH)- nima bilan birlashtirish mumkin?
- ADAPT(MOSLASHTIRISH)-nima bilan moslashtirish mumkin?
- MODIFY/MAGNIFY(MODIFIKATSIYA BOSHQA TURI (HOLATI))-Qanday yaxshilashim mumkin? (katta, uzoqroq, balandroq, ortiqcha ishlangan, qo‘shimcha funktsiyalarni bajarish)
- PUT TO OTHER USES (BOSHQA SOHALARDA QO‘LLASH)-Nima o‘zgarishi mumkin? (uning miqyosidagi o‘sish yoki kamayishi, shakli o‘zgarishi, belgilar (masalan, rang) va boshqalar)
- ELIMINATE(QISKARTIRISH)-yana qanday holda qo‘llash mumkin?

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUL,2024

- REARRANGE/REVERSE (TARTIBINI O'ZGARTIRISH)-Nimani qayta tiklash mumkin? (Buyurtmani o'zgartirish, komponentlarni almashtirish, tezlik va boshqalar). Mavzu: CMS va uning imkoniyatlari.

SCAMPER	
SUBSTITUTE (ALMASHTIRISH)	<i>an'anaviy usulda web saytlar yaratishni almashtirishimiz mumkin</i>
COMBINE (BIRLASHTIRISH)	<i>an'anaviy va elektron ta'lim birlashuvi bilan sayt yaratish mumkin</i>
ADAPT(MOSLASHTIRISH)	<i>dasturlashda tuzilgan ko'rinishda web saytlarni tuzishga moslashtirish mumkin va samaradorlikni yuqori darajagaolib chiqish mumkin.</i>
MODIFY/MAGNIFY(MODIFIKAT SIYA BOSHQA TURI (HOLATI))	<i>Interaktiv va aralash ta'limdan foydalanib ta'lim jarayonini davom ettirish</i>
PUT TO OTHER USES (BOSHQA SOHALARDA QO'LLASH)	<i>Uy sharoitida ham mustaqil ta'lim olish imkonini beradi. Bu tizimdan foydalangan talabalar o'ziga qiziq bo'lgan boshqa sohaga tegishli fanlarni ham mustaqil o'zlashtirish imkonini mayjud.</i>
ELEMINATE(QISKARTIRISH)	<i>Talaba web saytda video, audio ma'ruzalardan foydalanib dars mashg'ulotlarini ortiqcha sarf-xarajatsiz o'zlashtirishi va dars materiallarini oson ko'chirib olishi mumkin.</i>
REARRANGE/REVERSE (TARTIBINI O'ZGARTIRISH)	<i>agar talaba web saytlarni CMS orqali amalga oshira olmasa albatta an'anaviy ta'limda o'qishi mumkin</i>

Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida quyidagi eng samarali metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- loyiha usuli;
- miya bo'roni usuli;
- fikrlash usuli;
- tushunchalarni taxlil qilish usuli;
- muammolarni kompleks hal qilish usuli;
- konferensiya usuli va boshqalar.

Ushbu usullardan foydalanish talabalikning birinchi yilidan boshlanishi mumkin. Kichik kurs talabalari uchun ijodiy izlanishlar, biznes o'yinlar, muammoli vaziyatlarga guruhi yechimlari, loyiha uslubi kabi metodlar samarali hisoblanadi. Mashg'ulotlarda ijodiy muhokamalar, «miya bo'roni», tashkiliy va faol o'yinlar, konferensiya usulidan foydalanish o'rganilayotgan muammoga chuqur kirib borish, o'rganilayotgan hodisaning afzalliklari va kamchiliklarini har tomonidan ko'rib chiqish, natijaga erishish imkonini beradi.

Yuqoridagi usullar guruhdagi tenglik, qulaylik muhiti hukmronlik qilganda tanqid qilishdan ochilganda muvaffaqiyatli bo'ladi. O'quv jarayonida talabalarning kreativligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ayrim metod va mashqlarni ko'rib chiqamiz.

Bahs-munozara metodi. O'quv guruhini ikki guruhga bo'lgan holda, biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladi.

Rolli o'yinlar. Ishbilarmonlik yoki rolli(vaziyatli) o'yinlar - muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o'yinda, matnli material o'miga talabalar tomonidan rollar o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi. Bosqichlari:

- vaziyatni tushuntirish, mos rollarni bo'lib berish, maqsad va vazifalarni tushuntirish;
- o'yin davomida talabalarning xatti-harakatlarini kuzatib borish;

- talabalarning xattiharakatlari orqali ularga bilim olishlariga, ma'lum malaka va ko'nikmalarini egallashlariga imkoniyat yaratish;
- o'yin natijalarining tahlili;
- o'yin natijalarini real hayotiy hodisalar bilan taqqoslash.

Pinbord metodi. Bu metod aqliy hujum metodining bir ko'rinishi bo'lib, unda qo'yilgan muammoni hal qilish bo'yicha g'oyalar alohida qog'ozchalarda yozilib, doskaga mixlanib boriladi. Ikkinci bosqichda esa, ular turli mezonlar bo'yicha sinflarga bo'linadi, saralanadi va muayyan tartibda doskada joylashtiriladi.

Ovozga qo'yish metodi.

- Dars davomida bahsli vaziyatni keltirib chiqarish;
- yuzaga kelgan babs munozarani boshqarish maqsadida, babs yuritayotgan tomonlarning fikrlarini guruh bo'yicha ovozga qo'yish;
- har bir fikr bo'yicha qarshi, rozi va betaraflarni aniqlash;
- tomonlarning dalillarini va fikrlarini tinglash;
- so'ng yana ovozga qo'yish;
- xulosalash.

Tadqiqot usuli. O'zlashtirish darajasining eng yuqori cho'qqisi; talabalarning olgan bilimlari asosida hali o'rganilmagan kichik bir muammo ustida yakka yoki birgalashib izlanish olib borishi; keltirilgan taxminni izlab topilgan dalillar asosida to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirish.

«Charxpalak» usuli. Mazkur metod guruhlarda ishlash usulining takomillashtirilgan ko'rinishi bo'lib, uning yordamida talabalar o'rganiladigan material bo'yicha ma'lum bilimga mustaqil ega bo'lish, jamoa bilan ishlash malakasini ega bo'lish, boshqalarni o'qitish, axborot bilan almashish hamda jamoa bo'lib qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Yangilik kashf etish orqali o'rganish metodi. Bu yondashuv talabalarning egallagan nazariy bilimlarini tadbiq etish bilan bir qatorda ularning o'z-o'zlarini rag'batlantirish orqali bilim va ko'nikmalar to'plashlariga sharoit yaratadi.

Xulosa:Kreativ pedagogika, har qanday fanga, matematika, fizika, tillar, iqtisodiyot bo'lsin, qo'llanish mumkin bo'lgan pedagogikadir. Bo'lajak mutaxassislarda ijodiy ta'lim jarayoni tashkillashtirish, kreativ pedagogikani tashkil etuvchi kompyuter vositalari, ularning turlari va ular foydalanishga qo'yilgan talablar haqida tushuncha berishi bilan ahamiyatlidir.

Asosiy adabiyotlar:

1. В.В.Попова. Креативная педагогика. Методология, теория, практика [Электронный ресурс] / под ред. д. т. н., проф. В. В. Попова, акад. РАО. Ю. Г. Круглова. — 4-е изд. (эл.). — Электрон. текстовые дан. 322 с.. — М. : БИНОМ.
2. [Rebecca Hun Ping Cheung](#) &[Chi Hung Leung](#), Preschool Teachers' Beliefs of Creative Pedagogy: Important for Fostering Creativity, 2013. – Vol. 25, [Issue 4](#), P.397-407, DOI: <https://doi.org/10.1080/10400419.2013.843334>
3. Илин. Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб: Питер, 2009. - 434 с.
4. 4. O.M.Yoqubov Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni baholash xususida .

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUL,2024

5. 5. I.S.Xotamov , M.K.Olimov , G.R.Madrahimov , I.S.Foziljonov. “Kreativ Fikrlash” o’quv qo’llanma. Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2022
6. 6. Baro’sheva T.A., Jigalov YU.A. Psixologo-pedagogicheskie osnovo’ razvitiya kreativnosti. SPb, 2006. -285s.
7. Psixologiya. Uchebnik dlya gumanitarno’x vuzov G’ Pod obh. red. V. N. Drujinina. — SPb.: Piter, 2001. — 656 s.: il. — (Seriya «Uchebnik novogo veka»)
8. Axmetova D., Gure L. Prepodovatel vuza i innovatsionno’ye texnologii G’G’ Vo’sshee obrazovanie v Rossii. 2001. №4. S.138